



Qo'chqor Norqobilning "Guldurak momo" hikoyasi badiiyati

Abdurasulova Gavhar Sherali qizi

O'zbekiston Milliy universiteti

Jurnalistika va o'zbek filologiyasi fakulteti

O'zbek adabiyotshunosligi kafedrası 1-kurs magistranti

gavkharabdurasulova24@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan vakili Qo'chqor Norqobilning "Guldurak momo" hikoyasi badiiy-estetik jihatdan tahlil qilinadi. Adib ijodida qishloq hayoti va milliy xarakter talqini markaziy o'rin egallaydi. Maqolada asar qahramoni Toshbuvi momo timsoli orqali insoniy munosabatlar, ona mehri va vijdon sadosi kabi tushunchalar ochib berilgan.

Kalit so'zlar: "Guldurak", milliy xarakter, badiiy detal, shahar va qishloq antitezasi.

Аннотация: В данной статье анализируется рассказ «Гулдурак момо» видного представителя современной узбекской литературы Кучкара Норкобила с художественно-эстетической точек зрения. В творчестве писателя центральное место занимают интерпретация сельской жизни и национального характера. Через образ главной героини — Тошбуви момо — раскрываются такие понятия, как человеческие взаимоотношения, материнская любовь и зов совести.

Ключевые слова: «Гулдурак», национальный характер, художественная деталь, антитеза города и деревни.

Abstract: This article provides an in-depth artistic, aesthetic, analysis of the short story "Guldurak Momo" by Kochkor Norkobil, a prominent figure in contemporary Uzbek literature. The depiction of rural life and national character holds a central place in the author's creative work. Through the character of Toshbuvi Momo, the article explores themes such as human relationships, maternal love, and the voice of conscience.

Keywords: "Guldurak Momo", national character, literary detail, urban-rural antithesis.

Kirish. Qo'chqor Norqobil Mustaqillik davri o'zbek hikoyachiligining iste'dodli vakillaridan biri. Uning hikoyalarida xalqona so'zlashuv, turli maqol va iboralar yetakchilik qiladi. Adib o'z qahramonlarini realistik ruhda tasvirleydi. Uning ijodiy faoliyati bugungi adabiyotimizda yorqin sahifalaridan joy olib kelmoqda. Ijodkorning hayot yo'liga nazar soladigan bo'lsak, Qo'chqor Norqobil 1968 yil 5-martda Surxondaryo viloyatining Oltinsoy tumanidagi Mo'minko'l qishlog'ida tug'ilgan.



O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist (2001). ToshDUning jurnalistika fakultetini tugatgan (1992). «Daryo ortidagi yig‘i» (1994), «O‘n sakkizga kirmagan men bor» (2002), «Kulib tur, azizim» (2005), «Quyoshni kim uyg‘otadi?» singari nasriy hamda «Xosiyatli dunyo» (1992), «Kaftimdagi qizg‘aldoq» (1993) she‘riy to‘plamlari nashr etilgan. Shunindek, Pushkin, Lermontov, Yesenin, Yevtushenko kabi shoirlarning nasriy asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

Qo‘chqor Norqobil zamonaviy o‘zbek adabiyotida inson ruhiyatining murakkab qirralarini, ayniqsa, qishloq odamlarining samimiy dunyosini mahorat bilan tasvirlaydigan adibdir. Yozuvchining asarlarida milliylik va umumbashariy qadriyatlar uyg‘unligi yaqqol namoyon bo‘ladi. “Guldurak momo” hikoyasi ham aynan shu yo‘nalishdagi asar bo‘lib, unda oddiy qishloq ayoli obrazi orqali zamonaviy hayotning inson qalbiga ta’siri ochib berilgan. “Guldurak momo” hikoyasi shunchaki maishiy voqea emas, balki milliy o‘zlikdan uzoqlashish va urbanizatsiya jarayonida ma’naviyatning yemirilishi haqidagi jiddiy ogohlantirishdir. Mazkur tadqiqot davomida shahar va qishloq mentaliteti o‘rtasidagi tafovut, farzandlarning ma’naviy uzoqlashuvi hamda urbanizatsiya jarayonining inson ruhiyatiga ta’siri badiiy detallar (it, oqbo‘z to‘siq, hayqiriq) yordamida yoritiladi.

Asosiy qism. “Istiqlol davri nasridagi eng muhim o‘zgarishlardan biri, shubhasiz, janrlar poetikasidagi yangilanishdir. Nazsrimizdagi epik tasvirlash usuli yangicha izlanishlar bilan boyib, jahon adabiyoti tizimidagi noan’anaviy deb ataluvchi yo‘nalish yuz ko‘rsatdi. Bu xildagi asarlarda badiiy talqin, voqealar bayonidan farqli o‘laroq, realistik pinhona ong oqimlari, falsafiy va ramziy tahlil hamda qahramon ruhiyatini tadqiq qilish orqali berilishi xarakterli” [2, 4-b].

“Guldurak momo” hikoyasida xalq tilining jonli unsurlari — maqol, ibora, so‘z o‘yinlari, kinoyali ifodalar, tildagi xalqona ohanglar — asarga hayotiylik baxsh etadi. Adib asarlarida xalq nutqiga xos tabiiy soddalik, samimiylik va ichki ohang mavjud. Bu uslub yozuvchining xalq ruhiyatini chuqur bilishi, xalq tafakkuriga tayanib yozish mahoratini ko‘rsatadi. Hikoyaning tili sodda va jonli. Undagi diologlar orqali xarakterlar ochiladi. Uni o‘qigan kitobxon voqealarni bevosita tasavvur qiladi, xayolida jonlantiradi. Jonlantirish orqali esa obrazlilik kelib chiqadi. “Badiiy fikrlash – borliqni ijodkorning qalb oynasi orqali, jonli, samimiy qabul qilish va tasavvur qilish mahsulidir” [1, 75-b]. Guldurak momo — xalqona tafakkurga yaqin, ochiqko‘ngil, mehribon va hazilkash qahramondir. Uning “guldurak” deb atalishi ham xarakterining yorqin jihatini ifodalaydi. Biroq bu kulgi yuzaki bo‘lib, uning ortida chuqur sog‘inch va ruhiy yolg‘izlik yashiringan. Muallif ana shu kontrast orqali inson tabiatining murakkabligini ochib beradi. “Har bir inson alohida o‘ziga xos ehtirosalar, tuyg‘ular,



orzular, fikrlar olamidir, lekin bu ehtiros, bu tuyg‘u, bu orzu, bu fikr qandaydir bitta odamgagina mansub emas, balki barcha xalqlar uchun mushtarak bo‘lgan tabiatning umumiy mulkini tashkil etadi.” [4, 310-b].

Ismi Toshbuvi bo‘lishiga qaramasdan hamma uni “Guldurak momo” deydi. “...Ovozini aytmaysiz, gulduraydi — gapni zambarakning o‘qiga bog‘lab otadi, tushgan joyini o‘pirib ketadi. Qishloqda katta-kichik uni guldurak momo deydi. O‘ziyam o‘rganib ketgan...”[5] Aynan bu obraz vositasida Qo‘chqor Norqobil frazeologik birliklardan keng foydalanadi. “Guldurak” — Bu shunchaki ovoz emas. Hikoya qahramoni Toshbuvi momoning “Guldurak” deb atalishi lisoniy va badiiy jihatdan katta ma‘no tashiydi. Bu nomni o‘z navbatida bir necha jihatdan tahlil qilishimiz mumkin:

1. Tabiat kuchi: Momoning sofliigi va haqgo‘yiligini bildiradi;
2. Uyg‘otuvchi hayqiriq: Atrofdagi befarq, mudroq qalblarni uyg‘otishga xizmat qiladi;
3. O‘tmish aks-sadosi: Momoning o‘zi aytganidek, bu “otamning ovozi” — ya‘ni ajdodlar sadosidir.

Maqolada asosiy e‘tiborni shahar va qishloq qarama-qarshiligiga (antitezaga) qaratish lozim. Qishloq: Bu yerda momo hamma uchun kerakli. Uning qatiq yoki tuxum berishida saxovat, bola-baqradan xabar olishida insoniylik bor.

Shahar (O‘g‘lining uyi): Bu yerda hamma narsa hashamatli, lekin ruhsiz. O‘g‘ilning uyida ota-ona va mehmonlar o‘rtasiga “oq bo‘z” tortilishi — bu o‘z ildizidan uyalishning eng yuksak cho‘qqisi, ya‘ni ma‘naviy bo‘shliq belgisidir.

Badiiy detallar tahlili

It obrazi: O‘g‘ilning xonadonidagi bahaybat it — yovvoyilashgan madaniyat ramzi. Itga ko‘rsatilgan e‘tibor ota-onaga ko‘rsatilgan e‘tibordan yuqori turishi jamiyat fojiasini ochib beradi.

O‘limdan saqlab qolgan, hikoyaning kulminatsion nuqtasi hisoblangan momoning hayqirig‘i "To‘xta!" nafaqat itni to‘xtatadi, balki o‘quvchini ham to‘xtatib, o‘zligini sarhisob qilishga chorlaydi. Bu hayqiriq — onalik mehrining va milliy ruhning g‘alabasidir.

Hikoyada ota-ona va farzand o‘rtasidagi masofaning ruhiy oqibatlari tasvirlanadi. Farzandlar shahar hayotiga moslashib, ota-onadan ham jismonan, ham ma‘nan uzoqlashadi. Bu esa Guldurak momo va uning turmush o‘rtog‘ida sog‘inch, bo‘shliq va yolg‘izlik tuyg‘ularini keltirib chiqaradi. Bu motiv bugungi globallashuv sharoitida dolzarb muammo sifatida talqin qilinadi. “Istiqlol davrida o‘zbek nosirlari



qahramonlar tasvirida sxematizmdan qutulib bormoqda. Badiiy asarda olamga mavjudligi bilan sir-sinoatga to‘la, har lahzada har kimga har turli qiymatga ega bo‘lib tuyiladigan tirik inson tarzida yondashish qaror topib borayotir. Odamni yoritishda jo‘nlikdan qutilayotganligi o‘zbek nasri taraqqiyotida sog‘lom tamoyillar qaror topayotganligini ko‘rsatadi” [3, 194-b].

Xulosa. “Guldurak momo” hikoyasi oddiy hayotiy voqealar asosida inson qalbining murakkab kechinmalarini ochib beradi. Asarda zamonaviylik va an’ana, taraqqiyot va ma’naviyat o‘rtasidagi muvozanat masalasi ilgari suriladi. Guldurak momo – Toshbuvi obrazi orqali muallif inson uchun eng muhim qadriyat – mehr va yaqinlik ekanini badiiy tarzda asoslaydi. Asarda qishloq – samimiyat, sokinlik va an’ananing ramzi sifatida berilgan bo‘lsa, shahar – qulaylik, zamonaviylik ammo ma’lum ma’noda sovuqlik ramzidir. Bu ikki makon o‘rtasidagi qarama qarshilik inson ruhiy holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Globallashib borayotgan dunyoning global fojialaridan, chigal muammolaridan biri ma’naviy tarbiyasizlikdir. Muallif bu orqali taraqqiyotning faqat moddiy jihati yetarli emasligini ma’naviylik ham muhim ekanligini ta’kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmedov Hoshimjon, Badiiylik asoslari va mezonlari – Toshkent: Bookmany print, 2022.
2. To‘rayev D. Rangin tasvirlar jilosi – Toshkent: Akademnashr, 2014.
3. Yo‘doshev Q. Yoniq so‘z – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
4. Белинский В.Г. Полное собрание сочинений в 13-ти томах. Т.XI. –М., 1956.
5. Qo‘chqor Norqobil. Guldurak momo (hikoya)